

"Maxam-Chirchiq" Ajda davlat xaridlarini o'tkazishda korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni kuchaytirish masalalari muhokama qilindi

// 08.05.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/maxam-chirchiq-ajda-davlat-xaridlarini-o-tkazishda-korrupsiy>



"O'zkimyosanoat" AJ tizimida davlat xaridlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, shuningdek korrupsiyaviy xavflarni oldini olish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompayens boshqarmasi vakillari tomonidan "Maxam-Chirchiq" Ajda davlat xaridlarini amalga oshirishga mas'ul xodimlar ishtirokida amaliy uchrashuv o'tkazildi.



Uchrashuv davomida jamiyatda amalga oshirilayotgan davlat xaridlarining bugungi holati tahlil qilinib, mavjud muammo va kamchiliklar muhokama qilindi. Shuningdek, davlat xaridlari sohasida qabul qilingan yangi qonunchilik talablarini amaliyotga to'g'ri tatbiq etish, xarid jarayonlarining qonuniyligi va shaffoqligini ta'minlash yuzasidan tegishli tavsiyalar bildirildi.

Tadbirda ishtirokchilarga davlat xaridlarida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, raqobat muhitini ta'minlash, elektron xarid tizimlaridan samarali foydalanish hamda korrupsiyaviy xavflarni bartaraf etish bo'yicha tushuntirishlar berildi.